



**TA'KIDLI NUTQIY AKTNI IFODALOVCHI NUTQIY FAOLIYAT FE'LLARI
KOMMUNIKATIV VOSITA SIFATIDA**

Xolmatova Vazira Narzullayevna

Qarshi davlat texnika universiteti "Xorijiy tillar" kafedrasida dotsenti,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: vazira8707@gmail.com

Annotatsiya

Performativ fe'llar nutqiy faoliyat jarayonida adresatning ishonchini mustahkamlash, uning presuppozitsiyasi aniqligini tasdiqlash yoki inkor etish, bildirilayotgan e'tiroz yoki bahoni kuchaytirish kabi qator pragmatik vazifalarni ijro qiladi. Shu guruhdagi fe'llarning pragmatik vazifasi ko'pincha ularning nutqiy tuzilma tarkibida qaysi o'rinda turishi bilan bog'liq. Binobarin, boshlang'ich o'rinni egallagan performativ nutqiy tuzilma mazmunidagi ta'kidni eng yuqori nuqtaga ko'tarsa, o'rta va yakunlovchi o'rinlardan joy olganlarining ta'sir darajasi kuchsizroq bo'ladi. Illokutiv ta'sirning darajasi qo'llanilayotgan fe'lning shakli bilan ham bog'liq.

Kalit so'zlar: *til va nutq hodisalari, pragmatik, kommunikativ maqsad va gap shakli tuzilishi, nutkiy aktlar.*

Kommunikativ operatorlarning qo'llanishi adresatning tafakkur faoliyatiga ta'sir o'tkazish va shu yo'sinda uning diqqatini jalb qilishga qaratiladi. Mazkur vositalarning farqli jihati ularning faol ta'sir vazifasini bajarishidir. Ammo kommunikativ operatorlar uchraydigan gaplarda ta'sir kuchi nafaqat adresatga, balki uzatilayotgan axborot mazmuniga ham yo'naltirilgan bo'ladi. Modal operator tinglovchiga so'zlovchining propositsiya haqiqiyliги haqidagi fikrini yetkazsa, kommunikativ operator esa tinglovchining o'zini baho berish harakatiga undaydi.

Konstativ nutqiy aktining mazmunidagi ta'kid, qat'iylikni ifodalovchi operatorlar jumlasiga nutqiy faoliyat fe'llari ham kiritilib kelinadi [Старикова 1985: 89; Поспелова 1985: 68; Holmes 1994: 355]. Performativ fe'llar, haqiqatdan ham, tinglovchiga axborotning muhimligi haqida xabar beradi [Edmonson 1991: 155]. Ushbu guruhdagi fe'llar nutqiy harakat illokutiv kuchini aniq atash imkoniyatiga egaligi [Почепцов О.Г. 1989: 101; Leech 1983] tufayli pragmatik mazmunni anglashni osonlashtiradi. Qiyoslang:

I tell you, Julia, there's nothing so terrifying in the world as a son [Wilder, p.40].

Olib borgan kuzatuvlarimiz performativ fe'llarning ikki asosiy vazifani bajarishidan guvohlik beradi: fatik (suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish) va pragmatik vazifalar. Ushbu fe'llarning katta qismi quyidagi pragmatik vazifalarni bajaradi:

a) adresatni propositsiyaning haqiqiyligiga ishontirish. Bu vazifada qo'llaniladigan tell, assure, swear kabi fe'llarning ta'kidlash darajasi har xil:



I can't help it. I tell you, I can't go on [Maugham, p.299]; «I promise, I won't invite another solitary single sole», Paula assured her [Bradford, p.664].

I declare, Frank, I don't know how he'll get along [Wilder, p.39];

b) adresat xulosasini to'liq tasdiqlash:

– Do I fit the record or do I deviate?

– I'd say you were right, of course [Le Carré, p.117].

v) adresat presuppozitsiyasining aldamchi ekanligini qat'iyankor inkor etish:

– Everything all right, Frank?

– Yes. I declare – easy as kittens [Wilder, p.17];

g) adresat fikri bilan umuman hisoblashmaslik:

– Don't act as if you have file on me.

– I assure you it's not mumbo jumbo [Donleavy, p.115];

d) emfatik baho berish:

I tell you it's the finest thing in the world [Donleavy, p.64].

Aytish joizki, I say birikmasi ba'zan nutqiy tuzilmada ta'kidni yumshatish vositasiga aylanadi. Bu, ayniqsa, so'zlovchi berilayotgan xabar ma'suliyatini yana biror kishi bilan baham ko'rish niyatida bo'lganida seziladi:

None of them has your direct avenues to the... centers of determination, shall we say [Ludlum, p.24].

Performativ fe'llarning bajaradigan vazifasi ularning nutqiy tuzilma tarkibidagi joylashish o'rni bilan ham belgilanadi. Boshlang'ich o'rinda kelayotgan performativ fe'l ta'kid va aloqa o'rnatish vazifalarini bir paytning o'zida bajaradi. Kuzatishimizcha, mazkur pozitsiya eng ko'p uchraydigan holatdir (70% dan ortiq):

I tell you she is a friend of mine [Maugham, 1. p.74];

I declare, I do not love you, I dislike you the worst of anybody in the world [Bronte, p.38].

Mazkur operatorlarning oxirgi o'rinda qo'llanishi bir muncha kam uchraydi (23%) va bunda ta'kid ma'nosi yumshoqroq konnotatsiyaga ega bo'ladi:

She has been a companion, I tell you [Christie, p.64];

We'll get the rough this safely, I promise [Bradford, p.366].

Performativ fe'llarning interpozitsiyada qo'llanishi qariyb kuzatilmaydigan holdir. Lekin bu fe'llarning mustaqil kommunikativ birliklar sifatida qo'llanishi, oz miqdorda bo'lsa-da, uchraydi (2,6%). Operatorning bunday ko'rinishda faollashuvida ta'kid harakatining yuqori darajasi sodir bo'ladi. Masalan:

I tell you. I seen a witch once. In Brooms – grove it was [Rudkin, p.86]. I'll let you know as quickly as possible. I promise. [Bradford, p.154].

Performativ ma'noda qo'llanilayotgan fe'llarning zamon va aspekt shakllari o'zgarib turadi. Ba'zi tilshunoslar performativ fe'llarning faqat Present Indefinite shaklida faollashuvini tasdiqlamoqchi bo'ladilar [Артюнова 1998: 372; Bach 2003]. Biroq, biz to'plagan material ko'lamida nutqiy harakatni ifodalovchi performativlarning Present



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Continuous shaklidagilari ham uchradi. Bunday shakl vositasida ifodalanayotgan ta'kid ma'nosi so'zlovchining o'z fikrida sabotliligi, murosasizligiga ishora qiladi. Qiyoslang:

I'm saying to you again, none get away with what you're thinking [Sheldon, p.61]; I keep telling you women do that half a dozen times a day [Bradford, p.802].

Performativ fe'l hatto kelasi zamon shaklida ham qo'llanishi mumkin. Bunda kelasi zamonga xos gumon ma'nosi ta'kidni kuchsizlantiradi:

Little Kate is beginning to talk. I'll swear, she said «mama» this morning [Sheldon, p.145].

Ta'kid ma'nosi ifodasining bunday kuchsizlanishini sezgan so'zlovchi nutqiy tuzilma tarkibiga ot yoki ravishli to'ldiruvchi elementni kiritib, nutqiy harakatning qat'iyatli bo'lishiga erishadi:

I'm going to tell you frankly that if-well, if certain things happen, I'll get in touch with you, and if they don't I won't and that's final [Gardner, p.49].

Ushbu gapda kelasi zamon shaklining qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgani qat'iyatsizlik ma'nosi frankly elementi va «oxirgi qarorga kelganlikka» ishora qiluvchi that's final birikmasi vositasida bartaraf etilmoqda.

Shunday qilib, olib borilgan tahlil natijalari ko'rsatishicha, nutqiy faoliyat performativ fe'llari muloqot sharoitida adresatni berilayotgan xabarning haqiqiylikligiga ishontirish vazifasini bajarib, konstativ nutqiy aktiga ta'kid mazmunini beradi. Ushbu fe'llar qo'llanishida vazifaviy, zamon, modal va semantik variativlik kuzatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Старикова Е.Н. Проблемы семантического синтаксиса. – К.: Вища школа, 1985. – 122 с.
2. Пospelova A.Г. О средствах смягчения коммуникативного намерения в современном английском языке // Вестник ЛГУ. – 1985. – № 16. – С.67-71.
3. Holmes J. Modifying Illocutionary Force // Journal of Pragmatics. – 1994. – № 38. – p. 345-365.
4. Edmondson W. Spoken Discourse: A Model for Analysis. – L.: Longman, 1991. – 217 p.
5. Почепцов О.Г. Основы прагматического описания предложения: Диссертация. ... доктора филологических наук. – К., 1989. – 480 с.
6. Leech G.N. Principles of Pragmatics. –L. & N.Y.: Longman, 1983. –250 p.
7. Bradford. B.T. Hold the Dream. – Panther books. Granada Publ. Ltd. L., 1995. – 831 p.
8. Wilder. Th. Our Town // Modern American Plays. – Leningrad, 1981. – P.11-70.
9. Le Carré, J. The Honourable Schoolboy. – London: Pan Books, 1988. – 532 p.
10. Donleavy. J.P. The Ginger Man. – Penguin Books, Harmondsworth, 1988. – 345 p.